ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 98 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA SODERJANIE CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Гапурова

O'SMIRLARDA EGOIZM PSIXODIAGNOSTIKASI



Karayeva Yulduz Xushbakovna
Termiz davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Egoizmni empirik o'rganishga qaratilgan dastlabki tadqiqotlardan biri Rossiyada K. Muzdybayev tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, unda egoistik xatti-harakatga moyillikning turli ijtimoiy guruhlardagi namoyon bo'lishi, ularning kasbiy va ijtimoiy holati, yoshi hamda gender farqlari tadqiq etilgan. Rus olimlaridan L. I. Bojovich, I. A. Rudzit, S. Xolmslar esa egoizmni inson xatti-harakatlarini belgilovchi muhim motivatsion omillardan biri sifatida talqin qilgan. Maqolada egoizmning inson xulq-atvorida turli yosh davrlarida namoyon bo'lishi, uning ko'rinishlari, turlari va shakllanish omillarining xorijiy olimlar tomonidan o'rganilganligi tahlil etilgan. Shaxs xulq-atvorida egoizmning namoyon bo'lishi uning ijtimoiy munosabatlari va jamiyatdagi mavqeiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois egoizmning psixologik xususiyatlarini o'rganish, uni eksperimental jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda ham ushbu masalani ilmiy jihatdan o'rganish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Kalit so'zlar: egoizm, altruizm, egosentrizm, egoistik shaxs, antideprivatsion shaxs.

Abstract: One of the early empirical studies of egoism was conducted in Russia by K. Muzdybayev, who investigated the manifestations of egoistic behavior among different social groups, considering their professional and social status, age, and gender differences. Russian scholars L. I. Bozhovich, I. A. Rudzit, and S. Holmes interpreted egoism as one of the important motivational factors influencing human behavior. The article analyzes research conducted by foreign scholars on the manifestations of egoism in human behavior at different stages of life, its forms, types, and factors contributing to its development. The manifestation of egoism in individual behavior may, to some extent, influence social relationships and a person's position in society. Therefore, studying the psychological characteristics of egoism and investigating it experimentally are of considerable importance. The present study aims to examine this issue from a scientific perspective.

Key words: egoism, altruism, egocentrism, egoistic personality, antideprivation personality.

Аннотация: Одно из первых эмпирических исследований эгоизма было проведено в России К. Муздыбаевым, который изучал проявления склонности к эгоистическому поведению в различных социальных группах с учётом их профессионального и социального положения, возраста и гендерных различий. Российские учёные Л. И. Божович, И. А. Рудзит и С. Холмс рассматривали эгоизм как один из важных мотивационных факторов, определяющих поведение человека. В статье анализируются исследования зарубежных учёных, посвящённые проявлениям эгоизма в поведении человека на различных возрастных этапах, его формам, видам и факторам формирования. Проявление эгоизма в поведении личности может в определённой степени влиять на её социальные отношения и положение в обществе. В связи с этим изучение психологических особенностей эгоизма и его экспериментальное исследование имеют важное значение. Основной целью настоящего исследования является научное изучение данной проблемы.

Ключевые слова: эгоизм, альтруизм, эгоцентризм, эгоистическая личность, антидепривационная личность.

KIRISH

Shaxsdagi egoizmga xos xulq ko'rinishlari turli yoshdagi insonlarda va ijtimoiy munosabatlarning turli sohalarida kuzatilishi mumkin. Inson ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchisi sifatida o'z shaxsiy intilish va qiziqishlari, aql-idroki hamda hayotiy tajribasi asosida o'zini o'zi tarbiyalashga, yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishga harakat qiladi. Insonning ma'naviy barkamollikka erishishida shaxsning xulq-atvori, jamiyatdagi o'rni, maqsad va qiziqishlari hamda intilishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs psixologiyasini tadqiq etishda uning ayrim xususiyatlari va xulq ko'rinishlarini bevosita kuzatish bilan birga, ularning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Chunki shaxs xususiyatlari turli vaziyatlar va ijtimoiy sharoitlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi

mumkin. Shu bilan birga, turli ilmiy yo‘nalish vakillari shaxs xususiyatlari tushunchasini o‘ziga xos nazariy yondashuvlar asosida izohlaydilar. Mazkur yondashuvlar inson xulq-atvori va tajribalarining barqarorligi, izchilligi hamda individual xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Egoizm insonning shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlariga ustuvor ahamiyat berishi bilan tavsiflanadigan motivatsion holat sifatida ta’riflanadi. Egoistik xususiyatlarga ega shaxs o‘z maqsadlariga erishish jarayonida shaxsiy manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yishga moyil bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda shaxsiy ehtiyojlar bilan boshqa insonlarning his-tuyg‘ulari, manfaatlari va huquqlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Egoizm shaxsning motivatsiyasi va xarakterida namoyon bo‘lishi bilan birga, ayrim falsafiy qarashlarda hayotiy tamoyil sifatida ham talqin etiladi. Egoizm nazariyasida insonning o‘z manfaatlarini anglash va ularga ustuvor ahamiyat berish masalasi alohida o‘rin egallaydi [1].

Ushbu yondashuv shaxsning o‘z “men”ini anglash, individual ehtiyojlarini ifodalash va shaxsiy maqsadlarini belgilash jarayonlari bilan bog‘liqdir. Boshqacha qilib aytganda, egoizm insonning o‘z ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan maqsadli xulq-atvorida namoyon bo‘lishi mumkin. Shu sababli egoistik xususiyatlarni o‘rganishda, birinchidan, shaxsiy maqsadlarning ustuvorligini, ikkinchidan, ushbu maqsadlarga erishish vositalarining ijtimoiy me’yorlar va boshqa insonlarning manfaatlari bilan muvofiqligini hisobga olish muhimdir. Mazkur ikki jihat shaxsning individual va ijtimoiy xususiyatlari o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Quyida egoizmning asosiy psixologik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

1. Egoizmning yuqori darajada individual yo‘nalganlik xususiyati

Egoizmning ushbu yo‘nalishi shaxsiy manfaatlar va individual ehtiyojlarga ustuvor ahamiyat berilishi bilan tavsiflanadi. Altruizm boshqalarning manfaatlarini hisobga olishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, egoizm shaxsning o‘z ehtiyojlari va maqsadlariga e’tibor qaratishi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan mazkur tushunchalar inson xulq-atvorining turli motivatsion yo‘nalishlarini ifodalaydi.

O‘z manfaatlarini ustuvor deb biladigan shaxsning motivlari uning individual ehtiyojlari, intilishlari va hayotiy maqsadlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday shaxs o‘zining kognitiv imkoniyatlarini shaxsiy his-tuyg‘ulari, ehtiyojlari, huquqlari va majburiyatlarini anglashga yo‘naltirishi mumkin. Egoistik yo‘nalganlikda shaxsning o‘z “men”iga bo‘lgan e’tibori muhim o‘rin tutadi.

Shu bilan birga, shaxsiy manfaatlarni boshqa insonlarning qarashlari va ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish ijtimoiy munosabatlarning samarali rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa egoizmning individual xususiyatlarini ijtimoiy moslashuv va shaxslararo munosabatlar bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

2. Boshqalar oldidagi majburiyatlarga individual munosabat xususiyati

Mazkur xususiyat shaxsning boshqa insonlar oldidagi majburiyatlarni o‘z ehtiyojlari, qarashlari va shaxsiy manfaatlari asosida baholashi bilan tavsiflanadi. Egoistik yo‘nalganlikda shaxs mustaqil qaror qabul qilish va o‘z faoliyatini individual maqsadlariga muvofiq tashkil etishga intilishi mumkin.

Insonning boshqalar oldidagi majburiyatlarni anglashida hamdardlik, do‘stlik, sevgi, hurmat va o‘zaro ishonch kabi ijobiy his-tuyg‘ular muhim ahamiyatga ega. Ushbu fazilatlarni rivojlantirish shaxsning mas’uliyat hissini mustahkamlash va ijtimoiy munosabatlarda muvozanatni ta’minlashga yordam beradi.

Egoizm haqidagi falsafiy qarashlarida M. Shtirner shaxsning mustaqil tanlov qilish huquqiga alohida e’tibor qaratadi. Uning “Hech kim menga biror vazifani buyurishga jur’at eta olmaydi va men o‘z munosabatimni o‘zim belgilayman” degan fikri shaxsiy erkinlik va individual qaror qabul qilish masalalarini yoritadi. Shuningdek, “Men boshqaga nisbatan hech qanday majburiyatga ega emasman…” degan qarashi ham egoistik yondashuvda individual mustaqillikning ustuvorligini ifodalaydi [2].

3. Egoizmning egalik qilish istagi

Egoizmning ushbu xususiyati shaxsning o‘z ehtiyojlarini qondirish, mavjud imkoniyatlarini kengaytirish va muayyan qadriyatlarga ega bo‘lishga intilishi bilan bog‘liqdir. Antideprivatsion yondashuv (lotincha deprivatio – yo‘qotish) insonning mahrumlik holatlarini bartaraf etish va ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan intilishini ifodalaydi.

G. Marselning qarashlariga ko‘ra, egalik qilish istagi insonning intilishlari va talablarida namoyon bo‘ladi [3]. Shuningdek, insonning muayyan narsaga ehtiyoj sezishi yoki o‘z imkoniyatlarini kengaytirishga intilishi “borliqning yetishmasligi” tushunchasi orqali izohlanadi [4].

Shaxsda bunday ehtiyojlarning yuzaga kelish sabablari turlicha bo‘lishi mumkin: mavjud imkoniyatlarni kengaytirish, muayyan maqsadga erishish, shaxsiy mavqeini mustahkamlash yoki o‘z ehtiyojlarini qondirishga intilish. Shu jihatdan egalik qilish istagi insonning moddiy, hissiy va intellektual hayoti bilan uzviy bog‘liqdir.

E. Fromm egalik qilishga yo‘naltirilgan hayotiy munosabatni tahlil qilib, shaxsning moddiy va ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati uning xulq-atvorida muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Muallifning qarashlarida egalik qilish istagining kuchayishi shaxslararo munosabatlar, raqobat, qoniqish hissi va individual ehtiyojlar bilan bog‘liq holda izohlanadi [5].

Ushbu yondashuv egoizmning psixologik mohiyatini tushunishda shaxsiy ehtiyojlar va ijtimoiy munosabatlar o‘rtasidagi muvozanatni o‘rganish muhimligini ko‘rsatadi. Shaxsning egalik qilishga bo‘lgan intilishini maqsadga muvofiq boshqarish, o‘zaro hurmat va hamkorlik tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish uning ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

4. Egoizmning maqsadga yo‘nalganligi

Egoistik xususiyatlarga ega shaxslarning maqsad sari intilishi, faolligi va qat’iyati ularning ijtimoiy muhitda o‘z manfaatlarini amalga oshirishga bo‘lgan intilishlari bilan bog‘liqdir. Bunday shaxslar o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish uchun mavjud imkoniyatlardan faol foydalanishga harakat qiladilar.

Mazkur jarayonda shaxsiy manfaatlarni ijtimoiy me’yorlar va boshqa insonlarning huquqlari bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. M. Shtirner egoistik motivatsiyani izohlashda insonning o‘z maqsadlariga erishishga bo‘lgan qat’iy intilishini alohida ta’kidlaydi. Uning qarashlariga ko‘ra, egoistik yo‘nalganlik shaxsning o‘z ehtiyojlarini anglash va ularni amalga oshirishga bo‘lgan intilishida namoyon bo‘ladi [6].

Ushbu yondashuv shaxsning maqsadga intiluvchanligi, mustaqil qaror qabul qilishi va individual motivatsiyasini psixologik jihatdan tahlil qilish imkonini beradi.

5. Ziddiyatli egoizm

Egoizmning ushbu xususiyati shaxsiy manfaatlar va ijtimoiy munosabatlar o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qarama-qarshiliklar bilan bog‘liqdir. D. Yum o‘z-o‘zini sevish va shaxslararo munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratgan [7].

Shaxsiy manfaatlarning ustuvorligi ayrim vaziyatlarda manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarni o‘rganish shaxslararo munosabatlarda o‘zaro tushunish, murosa va hamkorlikning ahamiyatini aniqlash imkonini beradi.

Egoistik yo‘nalganlikda shaxsning o‘z maqsadlariga erishishga intilishi boshqa insonlarning faoliyati va manfaatlari bilan o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu sababli shaxsiy manfaatlar bilan ijtimoiy ehtiyojlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, o‘zaro hurmat va konstruktiv muloqotni rivojlantirish muhimdir.

Mazkur yondashuv egoizmning ziddiyatli jihatlarini shaxsning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish nuqtayi nazaridan o‘rganishga xizmat qiladi.

6. Egoizmning vayronkorlik bilan bog‘liq jihatlari

Egoizmning ayrim ko‘rinishlari shaxsning individual manfaatlari va jamiyatda qabul qilingan axloqiy me’yorlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda shaxsning o‘z maqsadlariga erishish usullari, ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan yondashuvi va boshqa insonlarning manfaatlarini hisobga olish darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, shaxsiy manfaatlarning ustuvorligi ayrim vaziyatlarda mavjud ijtimoiy tartib va qadriyatlar bilan muayyan qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ikkinchidan, maqsadga erishish vositalarini tanlashda axloqiy me’yorlar va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillariga rioya etish shaxslararo munosabatlarning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Egoizm nazariyotchisi M. Shtirner egoistik motivatsiyani tahlil qilishda shaxsiy ehtiyojlarni qondirishga bo‘lgan intilishning kuchli namoyon bo‘lishiga e’tibor qaratgan [8]. R. Laut ham egoistik manfaat, shaxsiy iroda va kuchga intilish masalalarini falsafiy nuqtayi nazardan yoritgan [9].

Mazkur qarashlar egoizmning turli psixologik va falsafiy jihatlarini o‘rganish, shuningdek, shaxsiy manfaatlar bilan ijtimoiy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash imkoniyatlarini tahlil qilish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biz tajribamizda sinaluvchilarning egoizmga moyillik darajasini aniqlovchi K. Muzdybayev tomonidan ishlab chiqilgan psixodiagnostik so‘rovnomadan foydalandik. Tajriba-sinov jarayonida so‘rovnomada keltirilgan mulohazalarni muvofiqlashtirdik. Ushbu metodikani individual holda yoki guruhda qo‘llash mumkin.

Tadqiqot natijalarini qayta ishlashda ballar hisoblab chiqiladi. Ballar oralig‘i minimal 10 balldan maksimal 70 ballgacha. Ballar qanchalik yuqori bo‘lsa, egoizmning namoyon bo‘lish darajasi ham shunchalik yuqori deb baholanadi. Biz shaxsda egoizm namoyon bo‘lishi turli darajalarga egaligini hisobga olib, egoizm namoyon

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

bo‘lishining past, o‘rta va yuqori ko‘rsatkichlarini ajratib oldik. Ushbu so‘rovnoma egoizmni turli yoshda va turli kasb egalarida o‘rganish imkonini berganligi sababli metodikani qayta ishlash uchun quyidagi jadvalni havola etamiz (1-jadval).

1-jadval: **So‘rovnoma natijalarini qayta ishlash va talqin etish**

№	Guruhlar	Yuqori darajada (%)	O‘rta darajada (%)	Past darajada (%)	Ballarning o‘rtacha qiymati
1	**O‘smirlar**				
2	**O‘spirinlar**				

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir ko‘rsatkichning o‘rtacha qiymati hisoblab chiqiladi va har bir guruh bo‘yicha tegishli xulosalar beriladi. Ushbu metodika orqali ijtimoiy guruhning turli qatlamlarida (o‘qituvchilar, talaba-yoshlar, rahbarlar, ishchi-xodimlar), ularning yosh va jins tafovutlarida egoizm ko‘rinishlarini o‘rganish mumkin. Bundan tashqari, psixodiagnostik metodikalarga qo‘yiladigan talablar doirasida so‘rovnomadagi ayrim mulohazalarni kengaytirish va ularni qayta ishlash natijasida turli xil yosh davrlarida (o‘smirlik, o‘spirinlik davri) egoizmni o‘rganishda foydalanish mumkin.

Biz ham ushbu so‘rovnomadan foydalanib, tajriba-sinov tariqasida ikki guruhda: birinchi guruh (o‘smir) - 10–15 yosh, ikkinchi guruh (o‘spirin) - 16–18 yoshdagi sinaluvchilarda o‘tkazdik va tajriba natijalarini quyidagi jadvalda ifodaladik(2-jadva).

2-jadval: **O‘smir va o‘spirin yoshdagi sinaluvchilarda egoizmning namoyon bo‘lish darajalari (%)**

Guruhlarning yoshi	Sinaluvchilar soni	Yuqori darajada (%)	O‘rta darajada (%)	Past darajada (%)
10–15 yosh (o‘smir)	50 nafar	62	24	14
16–18 yosh (o‘spirin)	50 nafar	43	35	22

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shaxs jamiyatning muhim bir bo‘lagi sifatida o‘rganilishi lozim bo‘lgan fenomendir. Shunday ekan, shaxsning ijobiy xulq-atvor ko‘rinishlari bilan birga, uning egoizm kabi salbiy xislatlarini o‘rganish psixologiya fanining asosiy vazifalaridan biridir.

Yuqoridagi tadqiqotimizdan ko‘rinib turganidek, egoizm dinamik ko‘rinishga ega, ya’ni egoizmning rivojlanganlik darajasi o‘spirinlarga nisbatan o‘smirlarda yaqqol namoyon bo‘lgan, chunki o‘smirlik davrida shaxsning o‘z-o‘ziga baho berish tizimi yuqori namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. Bu esa o‘smirlarning tarbiyasidagi nuqsonlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda shaxsning ma’naviy kamoloti hamma vaqt ham muhim masalalardan bo‘lib kelgan. Shunday ekan, jamiyatda salbiy deb qaraladigan ayrim xulq ko‘rinishlari, xususan, egoizmni o‘rganish ular bilan korreksion ishlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi. Biz keyingi tadqiqot ishimizda egoizm yuqori bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy-psixologik treninglar, rolli o‘yinlar va psixologik mashg‘ulotlardan foydalangan holda korreksiya qilishni oldimizga maqsad qilib oldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kalin J. In Defense of Egoism // Morality and Rational Self-Interest / Ed. D. P. Gauthier. Englewood Cliffs, 1970. P. 64–87.
2. Штирнер М. Единственный и его собственность. Харьков, 1994. С. 245, 285, 306–307.
3. Марсель Г. Быть и иметь. Новочеркасск, 1994.
4. Сартр Ж.-П. Бытие и ничто: Опыт феноменологической онтологии. М., 2000.
5. Фромм Э. Иметь или быть? М., 1986. С. 32.
6. Юм Д. Трактат о человеческой природе, или Попытка применить основанный на опыте метод рассуждения к моральным предметам // Юм Д. Соч.: в 2 т. М., 1966. С. 701.
7. Лаут Р. Философия Достоевского в систематическом изложении. М., 1996. С. 166.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.